

# TONG

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

# YULDUZI

2009-yil  
26-oktabr  
N:43  
(66740)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

Kuni kecha mazkur bilim maskanida biz ham bo'ldik. U yerdagi shart-sharoitlarni ko'rib, bilimlar qasriga qiyosladik.

Kiraverishdagi gulzorda alvon rangdagi gullar chamandek ochilib, kishining bahri dilini yayratayotgan mazkur bilim maskanida 630 nafar o'g'il-qiz tahsil oladi. Ularga 53 nafar tajribali ustoz va murabbiylar ta'lim-tarbiya berishyapti. Maktab direktori Ismoil aka Ahmedov hamrohligida maktabni aylanib, 31 ta fan kabinetlari zamon talablariga to'la javob bera oladigan anjomlar, o'quv qo'llanmalari bilan jihozlanganiga guvoh bo'ldik.

Kattagina sport zalidagi shart-sharoitlarni aytmayizmi: sport anjomlari bilan yetarlicha jihozlangan, o'g'il bolalar va qizlar uchun alohida dam olish, yuvinish xonalari mavjud. Maktab oshxonasidagi mazali taomlar-u, shirin kulchalar o'quvchilarga yarim bahosida sotilar ekan.

— Mehmon, nurxonamizga ham bir kiring, — deya bizni ichkariga chorladi uning mudiri Zilola Najimova. — 2500 dan ziyod badiiy adabiyotlar bo'lgan kutubxonamizga 750 nafar o'quvchi, shuningdek, 50 nafar o'qituvchilarimiz ham a'zo bo'lishgan. Keng va shinam nurxonamizda kitobxonlar bilan suhbatlar, bolalar adiblari bilan ijodiy uchrashuvlar uyushtiramiz. Bunday tadbirlar esa bolajonlarimizning murg'ak qalblarida kitobga bo'lgan mehrni yanada kuchaytirishga xizmat qilyapti.

Sir emaski, ko'pchilik o'quvchilar kimyo fanini unchalik xushlamaydilar. Boisi, bu murakkab fanni tushunish biroz mushkulroq. Mazkur bilim maskani o'quvchilari orasida esa bu fanni yoqtirmaydiganlar topilmas ekan. Sababini 7-sinf o'quvchilari dars o'tayotgan kimyo fani xonasiga kirganimizda bilib oldik. Buning birinchi sababi kimyo xonasida o'quvchilarning puxta bilim olishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgani bo'lsa, ikkinchisi kimyo fani o'qituvchisi Orzuxon Po'latovanning o'z faniga o'quvchilarni qiziqitira olganida ekan.

Maktab hovlisida to'p-to'p bo'lib yurgan o'quvchilar bilan suhbatlashganimizda, ularning fikrlari bir joydan chiqdi:

«Biz yoshlarning puxta bilim olishimiz, hunar o'rganishimiz, sport bilan shug'ullanib, barkamol avlod bo'lib ulg'ayishimiz uchun shunday sharoitlar yaratib berilibdimi, demak, biz ham bunga javoban a'lo baholarga o'qishimiz, ustozlarimiz, ota-onamiz, qolaversa, yurtboshimiz ishonchini oqlashimiz lozim».

FERUZA



# BILIMLAR



Yangi o'quv yili arafasida Toshkent viloyatining Zangiota tumanida joylashgan 34-umumta'lim maktabi o'quvchilariga ko'plab tengdoshlari havas qilishdi. Boisi, ular o'quv yilini yangi maktabda boshlashdi.

## BIR QADAM QO'YING



Yaqinda bolalarning sevimli maskanlaridan biri G'afur G'ulom nomidagi madaniyat va istirohat bog'ida «Tong yulduzi» gazetasi hamda «Gulxan» jurnalining sakson yilligi munosabati bilan «Bolalar matbuoti bayrami» bo'lib o'tdi.



Mehmon kutgan odamda hayajon bo'lishi tabiiy. Mezbon sifatida biz ham ana shunday holatda edik. Tadbiri mazmunli va chiroyli o'tkazish uchun ko'plab rejalarini tuzib qo'ygandik. Bolajonlar kelmay qolsa-ya, degan o'y har zamonda ko'ngilni parmalab o'tadi. Bayram boshlanishiga biroz vaqt qoldi. Xuddi shu choq metrodan chiqib kelayotgan bir gala bolalarga ko'zimiz tushdi. Ularning qo'llaridagi «Tong yulduzi» biz sen bilan!», «Tong yulduzi» mening sevimli gazetam!» deb yozilgan shiorlarni ko'rgach, ancha xotirjam tortdik. Karnay-surnay sadolari ostida Mansurbek Kuryazov boshchiligidagi «Jayxun» qo'g'irchoq teatri jamoasi bog' darvozasi oldida kirib kelayotgan bolajonlarni katta tantana bilan kutib oldi. Bu ilk tomoshadan barchaning ko'ngli zavq-shavqqa to'ldi.

Biroz o'tgach esa mushtariylarimiz bog'ni to'ldirib yuborishdi. Bayram tantanalari ravishda boshlandi. Poytaxt o'quvchilaridan tashqari viloyatlardan kelgan o'quvchi va ustozlarning ham sanog'i yo'q edi. Bayramga taklif etilgan shoir va yozuvchilar davraga o'zgacha ruh bag'ishlashdi. «Eng yaxshi obunachi», «Eng ko'p kitob o'qiydigan o'quvchi» kabi tanlovlarning g'oliblariga qimmatbaho sovg'alar topshirildi. Nazarimizda, bayramda qatnashgan hech bir o'quvchi sovg'asiz qolmadi. Ilk harf taniy boshlagan chog'laridanoq she'r va hikoyalarni o'qib zavq olgan bolalar, Xudoyberdi To'xtaboyev, Tursunboy Adashboyev, Miraziz A'zam, Qambar Ota, Erkin Malik, Kavsar Turdiyeva va Abdurahmon Akbar kabi ijodkorlar bilan yuzma-yuz muloqotda bo'lishdi. Bolajonlarning tili bilan aytganda, «Mana buni sovg'a desa bo'ladi».

Bolalar adiblari qatorida Abdulla Oripov, O'tkir Hoshimov, Oydin Hojiyeva, Omon Matjon, Farhod Musajonovdek ijodkorlarning ham ishtirok etishi bolalarga bag'ishlangan dil so'zlari barchani quvontirdi. Shoir Feruza Jalilova so'zi, Shermet Yormatov musiqasi bilan bayram arafasida dunyoga kelgan «Tong yulduzi» qo'shig'i «Bulbulcha» dastasi tomonidan maromiga yetkazib ijro etilganda, butun saylgoh bayram shukuhiga burkandi. Kuy-qo'shiqlar raqslarga ulanib, bayram uzoq davom etdi.

Bunday olib qaraganda, oddiy gap. Bayram bo'lib o'tibdi. Tabiiy holdek. Aslida ham shundaymikin? Bizningcha, yo'q. Tadbirda qatnashgan o'quvchilar qalbida bu uchrashuv bir umr saqlanib qoladi. Bu ibratli tadbir tufayli ularning yonlariga sinfdosh do'stlari qo'shilishadi. Gazeta, jurnal va kitob eng yaqin do'st

ekanligiga yana bir karra ishonmalar.

Bayram davomida yana bir narsaning guvohi bo'ldik. Yurtimizda iqtidorli bolalar juda ko'p. Ularni yuzaga chiqarishda biz ota-onalar beparvomiz, xolos. «Tong yulduzi» gazetasida yil davomida bir necha xildagi tanlovlar o'tkaziladi. Balki sizning bolangiz uning g'olibi bo'lar. Bunday imkoniyatni qo'ldan chiqarmaslik kerakdir. Farzandingizni gazetaga obuna qilib qo'ysangiz, ularning tarbiyasi yo'lida xolis xizmat qiluvchi yana bir yaqin do'stga ham ega bo'lasiz.


«Tong yulduzi» gazetasi birinchi navbatda bolalarning minbari. Undan unumli foydalanish esa siz ota-onalar-u, aziz o'quvchilar qo'lida. Siz «Tong yulduzi» tomon bir qadam qo'ying. U sizni quchoq ochib kutib oladi.

Yusuf ABDULLAYEV

## DARSDA KIM KO'P GAPIRISHI KERAK:

## O'QITUVCHIMI YO O'QUVCHI?

Yuqoridagi savolga albatta o'qituvchi-da, deya javob berishingiz tabiiy. Ammo... 9-sinf o'quvchisi Ulug'bek MUSAQULOV uyushtirgan bugungi suhbat ana shu savolga oydinlik kiritadi, degan umiddamiz.



O'g'iloy MUHAMMEDOVA,  
Shayxontohur tibbiyot kolleji  
o'qituvchisi:

– Men ona tili va adabiyot fani o'qituvchisiman. Yangi pedtexnologiya bo'yicha ko'proq o'quvchining fikrini eshitish kerak. Buning uchun o'quvchidan yanada izlanish, o'rganish talab etiladi. O'qituvchi esa bu jarayonni boshqarib borishi lozim bo'ladi.

Dilbar IBODOVA,

Sobir Rahimov nomli akademik litsey o'qituvchisi:

– Men matematika fani o'qituvchisiman. Yangi mavzuni tushuntirishda ko'proq vaqt talab etiladi. O'quvchilarim esa misol-masalalarni to'g'ri yechib, o'tilgan mavzuni tushunganlarini isbotlashadi. Savol-javoblarga kelsak, bu har bir fanda bo'lishi shart bo'lgan jarayon.

Nodira PARDABOYEVA,  
Mirobod tumanidagi 218-maktab  
o'qituvchisi:

– Darsda kam gapirib, ko'p eshitishga harakat qilaman. Asosiy tushunchalarni tushuntirganimdan so'ng, o'quvchilarni bahs-munozaraga chorlayman. Chunki o'qituvchining zimmasiga bolalarning nutqini o'stirish vazifasi ham yuklatilgan.

Feruza OCHILBOYEVA, 145-  
maktab o'quvchisi:

– Darsda faqat o'qituvchi gapirsa, o'quvchining nutqi, fikrlashi rivojlanmaydi, deb o'ylayman. Menimcha, yangi mavzuni o'qituvchi tushuntiradi, qolgan vaqtda faqat o'quvchi gapirishi kerak.

Mavzu bahs-munozaraga boy o'tsa, ko'zlangan maqsadga erishiladi, deb o'ylayman. Buning uchun ikki tomon teng yondashishi zarur.

Ushbu mavzudagi fikr-mulohazalaringizni kutamiz.

BAYRAMGA  
ULANIB KETDI

Yaqinda poytaxtimizdagi G'afur G'ulom nomli madaniyat va istirohat bog'ida nishonlangan sevimli nashrimiz «Tong yulduzi»ning bayrami maktabimizdagi tantanalarga ulanib ketdi. Tadbiri maktabimiz direktori Boyqo'zi G'aniyev gazetaning o'quvchilar hayotidagi o'rni haqidagi fikrlari bilan ochib berdi. So'ngra, bayramimizga tashrif buyurgan «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi Farg'ona viloyati Kengashi rahbari No'monjon aka Shokirov so'zga chiqib, gazeta yubileyida qatnashganliklarini va sevimli nashrimizni bizning nomimizdan ham tabriklab qaytganlarini so'zlab berdilar. Bizga gazetaning maxsus sonini sovg'a qildilar. Tadbir so'ngida men ham gazetadan yod olgan she'rinni o'qib berdim.

Sardorbek AHMADJONOV,  
Farg'ona viloyati, Buvayda tumanidagi 42-umumta'lim  
maktabi o'quvchisi



(Boshi o'tgan sonlarda)

SHE'R  
YO'LI

Aziz yosh do'stim, sen bilan bolaligimni eslab, bahonada adabiyot, she'r, qisman shoirlik haqida suhbatlashib oldim. Ko'nglimdan joy olgan ba'zi she'rlarni ilindim. She'r haqida senda ozmi-ko'pmi tasavvur, tushuncha hosil bo'lgan bo'lsa kerak. Endi bevosita «she'r» yozish darsiga o'tamiz. «Gapingiz g'alati-ku, she'r degani dabdurdustdan to'qib yozilmaydi, balki u yurakda tug'iladi, deya yotgan edingiz», deysanmi? Bu mulohazangda jon bor. Darhaqiqat, u qalbdan qo'shiqday tug'iladi, so'ng ilhom bilan qog'oz betiga tushadi. Ushbu «she'r»

yo'zish darsida senga she'rning shakl-shamoyili haqida tushuncha bermoqchiman, xolos. Chunki she'r texnikasini bilmay turib, uni yozishning iloji ham yo'q.

O'zingga ma'lum, she'riy asarlar satrlardan tashkil topadi. Har bir qatorimiz bir satr yoki bir misra hisoblanadi. To'rtlik yozmoqchi bo'lsak, to'rt satr (misra), sakkizlik yozmoqchi bo'lsak, sakkiz satr (misra) yozishimiz kerak.

Har bir satr ma'lum bo'g'inga ega, qolgan misralarning bo'g'ini shu bo'g'inga teng bo'ladi. Masalan,

## XORIJDAGI TENGDOSHIM

- Samolyotga o'tirar ekanman, Amerikadagi maktabim haqida hech qanday tasavvurga ega emasdim. Okean ustidan uchib o'tayotib, o'zimcha yangi sinfdoshlarim haqida xayol sura boshladim. Shu tobda quvonchim ichimga sig'mas, meni kutayotgan yangi do'stlarimni tezroq ko'rgim kelardi...

Men o'qiydigan Missisipi shtatidagi maktab xususiy ekan. Ta'lim uchun pul to'laganimizdan so'ng, hujjatlarimni birmabir tekshira boshlashdi. Tekshiruvlardan so'ng baholarim pastlik qildi shekilli, qaytadan test topshiradigan bo'ldim. Moldavadagi maktabimda matematika bilan hech «do'stlasholmagan» edim. Shunga qaramay, Kantemira litseyida olgan bilimlarim meni uyaltirib qo'ymadi. Matematikadan yuqori ball bilan testdan o'tib oldim. Qani endi bu haqda ustozim Yelena Aleksandrovnaga aytib, ulardan suyunchi olsam!..

Kolumb haqidagi savolga javob berolmaganim bois, tarix fani bo'yicha sinovdan o'ta olmadim. Maktabimda o'yinqaroqlik qilib, tarixni yaxshi o'qimaganim uchun tengdoshlarim oldida uyaliq qoldim. Shu sababli qaytadan 5-sinfda o'qishimga to'g'ri keldi. Ingliz tilini yaxshi bilmaganim uchun bu fandan menga onam yordam bera boshladilar.

Avvaliga fizika, kimyo, geografiya fanlari bizda o'qitilmadi. 6-sinfda yangi fanlar qo'shildi. 7-sinfda «xay skul» fanini o'qiy boshladik. Amerikada mamlakat tarixi chuqur o'qitilar ekan. Men ham bu yurtning tarixiga juda qiziqib qoldim.

*Aziz bolajonlar! Xorijda tahsil olayotgan tengdoshlaringiz hayoti bilan hech qiziqib ko'rganmisiz? Bugun e'tiboringizga Amerikadagi xususiy maktab o'quvchisi Nastya Varenitsaning maktubini havola qilmoqchimiz.*

*Nastya Varenitsa 11 yoshga to'lgunga qadar Moldavadagi 34-maktabda tahsil olgan. Taqdir taqozosi bilan o'qishini Amerikada davom ettirayotgan Nastya yangi maktabi haqida quyidagilarni hikoya qiladi:*



Avvalgi maktabimda jismoniy tarbiya darsi o'tilmas edi. Faqatgina koptok yordamida «sokker» o'yinini o'ynardik. O'quvchilar «chialiding» guruhida mashq qilishadi. Shuning uchun ham bu guruh doimo beysbol o'yinida g'olib bo'ladi.

Bayramlarda sinfdoshlarimiz bir-birimizga turli otkritkalar va shirinliklar hadya qilamiz. Ba'zi o'quvchilar tug'ilgan kunlarini uylarida nishonlab beradilar.

Amerika ta'lim tizimidagi baholarga kelsak, kim 95 dan yuqori ball yig'sa, «A» guruhiga

kiradi va a'lochi o'quvchi hisoblanadi. Ballari 80 dan past bo'lsa, «S» guruhiga kiradi. Bu guruh o'quvchilari «3»chilar hisoblanishadi.

Maktabda a'lo bahoga o'qiganlar kollejda stipendiya olish imtiyoziga ega bo'ladilar.

Yangi maktabimdagi bir holat e'tiborimni o'ziga tortdi. Bu maktab o'quvchilari hech qachon bir-birlari bilan urishmas ekanlar. Chunki urishib qolgan o'quvchilar maktabdan haydaladilar. O'qituvchilar ham o'quvchilarga qo'pol munosabatda bo'lmaydilar, baqirmaydilar. O'zaro hurmatni men Amerikada o'rgandim. Endi men ham sinfdoshlarim va ustozlarimni hurmat qilib, puxta bilim olishga harakat qilyapman.

Mana, Nastyaning maktubi bilan tanishib chiqdingiz. Kuni kelib siz ham o'qishni xorijda davom ettiradigan bo'lsangiz, hozirdanoq bilimlarni puxta egallang. Ana shunda xorijlik tengdoshlaringiz oldida uyaliq qolmaysiz.

Internet manbaalari asosida

GULYUZ tayyorladi

## KOREYADA HOSIL BAYRAMI



## QANDAY NISHONLANADI?

Har bir xalqning o'ziga xos milliy bayrami va an'analari mavjud. Bolajonlar orasida o'zga millatlarning bayramlariga qiziqmaydiganlar topilmasa kerak.

Xususan, yoshlarbop seriallari bilan qalbimizdan joy olgan koreys xalqining bayramlari ko'pchilikni befarq qoldirmasligi aniq. Koreya davlati

birinchi satrimizdagi so'zlar to'qqiz bo'g'inni tashkil etsin. Qofiya, ya'ni ohangdosh so'zlar haqida gaplashgan edik. Qofiyalanish bu sabog'imizda a, b, v, b shaklida bo'la qolsin. Masalan, biz yozishni o'rganayotgan «she'r»iy shakl «Onajon» deb atalsin. Qofiya so'zlarimiz: onajon-a, jonim-b, nuri-v, qonim-b tarzda bo'lsin. Endi bu so'zlarni to'ldirilmagan satrlar shakliga keltiramiz. Masalan, mana bunday:

- \_\_\_\_\_ onajon, (a)  
\_\_\_\_\_ jonim, (b)  
\_\_\_\_\_ nuri, (v)  
\_\_\_\_\_ qonim, (b)

Yodingda bo'lsa, bo'g'inni shartli ravishda to'qqizta deb olgan edik. Demak, birinchi satrni to'ldirish uchun yana olti bo'g'inli (chunki «o-na-jon» so'zi uch bo'g'in), 2-3-va 4-satrlarni to'ldirish uchun har bir satrga yetti bo'g'inli mazmunga mos so'zlarni topib qo'yishimiz kerak. Men - bu

to'rtlikni mana bunday to'ldiraman:

*Onajonim, aziz onajon,  
Qurbon bo'lsin sizga bu jonim.  
Siz o'zingiz ko'zimning nuri,  
Siz o'zingiz qalbdagi qonim.*

Mana senga xomaki «she'r». Qara, hammasi joyida: qofiya ham bor, turoq ham bor. Har bir satr 4+5=9 bo'g'in shaklida. Hatto ma'noni kuchaytirish uchun «siz o'zingiz» iborasi atayin takror qo'llangan. «Qalbdagi qonim», «ko'zimning nuri» kabi iboralar o'xshatish, sifatlashning o'zi. Go'yo xulosa yasasak, she'r qiyomiga yetadigandek. Bu, bilsang, aldanchi hissiyot. Rosti, «to'rtlik»da o'quvchiga ruhiy ozuqa beradigan, ko'ngilni hayajonlantiradigan topilma - yangilikning o'zi yo'q. Bular hammaga ma'lum gaplar. Shuning uchun ham bu satrlar hech kimni qiziqitirmaydi, hayajonga solmaydi.

Abdurahmon AKBAR

(Davomlab)

sharqda joylashganligi bois ayrim bayramlarida o'zimning bayramlarga o'xshashlik tomonlarini ko'rishimiz mumkin. Koreyslarning eng sevimli bayramlari - «Yangi yil» (SOLNAL) va Hosil (CHUSOK) bayramlaridir. Bu bayram oktabr oyining boshida nishonlanadi. Bu bizning «Mehrjon» (Hosil) bayramiga o'xshab ketadi. Yangi yil bayramini kutib olish uchun yig'iladigan qarindoshlar bu odatlarini CHUSOK bayramida ham unutmaydilar. Ana shunday bayram kunlari koreyslar sulolaning eng kekxa erkak vakili oilasida yig'iladilar. Odatga ko'ra, bu bayramda barcha koreyslar o'z oila a'zolari davrasida milliy liboslari bo'lgan «XANBOK»ni kiyishadi hamda ajdodlar xotirasiga bayram dasturxonini bezatadilar. Dasturxonda odatda guruchli taomlar, kulchalar hamda yangi hosil mevalaridan xurmo, olma, nok, uzum qo'yiladi. Shu kuni koreyslarning milliy taomi «SONGPYON» tayyorlanadi. Bayram yarim oy shaklidagi kulchalarsiz o'tmaydi. Shuningdek, chusokda milliy o'yinlar o'ynaladi, xalq qo'shiqlari yangraydi, raqslar ijro etiladi. Mezbonlar oila a'zolariga, qarindosh urug'lariga, yaqin insonlariga sovg'a sifatida mevalar jo'natishadi. Bayramlarni nishonlash uchun havoning hech qanday injiqligi halaqit bermaydi. Janubiy Koreya iqlimi seryomg'ir bo'lgani uchun u yerda yilning hamma faslida yog'ingarchilik va nam havo hukm suradi. Biroq, bunday ob-havo sharoiti hech qanday noqulaylik tug'dirmaydi. Aksincha, koreyslar fikriga ko'ra, bayramda yoqqan yomg'ir qut-barakadan darak ekan.

Parizod SUYUNOVA,  
Janubiy Koreyaning Chun-An  
universiteti talabasi

## TEST

1. Poliennning «Harbiy hiylalar» kitobiga kiritilgan afsona asosida qaysi hikoya yaratilgan?

- A) «To'maris»;  
B) «Erubbi»;  
D) «Shirin qiz»;  
E) «Shiroq».

2. Hayot haqiqati bilan bog'liq bo'lib, xayoliy va hayotiy uydirmalar asosida qurilgan, didaktik g'oyalar tashuvchi og'zaki hikoyalar nima deyiladi?

- A) ertak;  
B) rivoyat;  
D) masal;  
E) afsona.

3. Ertak qanday qismlardan tashkil topadi?

- A) kirish qism, voqealar rivoji, qissadan hissa;  
B) kirish qismi, voqealar rivoji, tugallanma;  
D) boshlanma, tugallanma, yechim;  
E) voqealar rivoji, kulminatsiya, yechim.

4. «To'g'ri bo'ling - bexavotir bo'lasiz. Maqtanchoq bo'lmang - xijolat tortmaysiz. Dangasalik qilmang - baxtsiz bo'lmaysiz». Bu maslahatlar qaysi ertakda aytilgan?

- A) «Uch og'a-ini botirlar»;  
B) «Susambil»;  
D) «Malikai Husniobod»;  
E) «Zumrad va Qimmat».

5. «Susambil» qaysi ertak turiga kiradi?

- A) hayvonlar haqidagi;  
B) hayotiy - maishiy;  
D) sehrli ertaklar;  
E) xayoliy ertaklar.

6. «Oygu bilan Baxtiyor» ertak-dostoni kimning qalamiga mansub?

- A) A.Qahhor;  
B) T.Sulaymon;  
D) A.Obidjon;  
E) H.Olimjon.

2009-YIL - QISHLOQ TARAQQIYOTI VA FAROVONLIGI YILI



ONA SHAHRIM

Poytaxtim - ona shahrim, Go'zal diyor maskanim. Bag'ringda kamol topgum, Mening aziz Vatanim.

Ko'chalarim kezaman, Qalbda faxr, hayajon. Do'stga ochiq darvozan, Mehmondo'stsan, onajon.

Muhayyo MEHMONOVA, Toshkentdagi 243-maktabning 9-«D» sinf o'quvchisi

OLTIN KUZDA

Oltin kuzda yurtimizda, Xush manzara hukm surar. Keng samoda goh-gohida, Bulut to'p-to'p bo'lib turar.

Daraxtlar ham mevalarin, «Mana, ol», deb ko'z-ko'z qilar. Polizlarga qovun-tarvuz, Ko'rk ekanin yaxshi bilar.

Paxtazorda terimchilar, Oppog, momiq parni terar. Kuz rassomi ilhom bilan, Har yaproqqa jilo berar.

Gulmira CHINNIQULOVA, Samarqand viloyati, Qo'shlabot tumanidagi 74-maktabning 9-sinf o'quvchisi



Ajdodlardan moros Qadim Buzoro. Navqiron va ko'hna, Bu jahon aro.

Kindik qonim tomgan Mo'tabar zamin. Fangi yo'q bir go'sha, Men bunga amin.

Ko'kragimni baland Ko'larib yurgum. Yurtim xizmatiga, Doim shay turgum.

Mohinur QUDRATILLAYEVA, Buxoro viloyati, Shofirkon tumani

Istiqlol ilhomlari

Tahririyatimizga bobosi bilan kirib kelgan qizaloq o'zini Sadoqat deb tanishtirdi. U Toshkent viloyati, Parkent tumani, Nomdanak qishlog'idagi 22-maktabning 7-«B» sinfida hamda musiqa maktabining «Tasviriy san'at» yo'nalishi bo'yicha 3-bosqichida tahsil olar ekan.

- «Tong yulduzi» gazetasini sevib o'qiyman, - deydi Sadoqat Soliddinova. - Undagi «Qishlog'im - qalb ardog'im» tanloviga maktub

«Qishlog'im - qalb ardog'im» tanloviga

yo'llayotgan tengdoshlarimning maqolalarini qiziqish bilan o'qib boryapman. Bugungi kunga qadar shu mavzuda sakkizta maqola yozdim. Yozgan maqolalarimni bobom o'qib ko'rdilar-da, yuraqol, seni tahririyatga olib boraman, deya yetaklab keldilar, - dedi sevinib Sadoqat.

Uning o'z qishlog'i haqidagi maqolalari bizga ma'qul bo'ldi. Siz ham bir o'qib ko'ring-a:

BU KIMNING BOG'I?

Qishlog'imizga kelganlar: «Hasayni»dan bormi, deb so'rashadi. Mana bu Salim brigadir yaratgan bog'da uzumning barcha navlaridan topiladi, - dedi avtobusdagi keksalardan biri.

- Huv anavi bog' Ziya buvaning bog'i, narigisi Sayfullaning bog'i, - deya gapga qo'shildi yoshi ulug'roq bir kishi.

Ularning suhbatiga quloq tutib, bobomdan so'rayman:

- Bog'larning nomi odamlar nomiga qo'yilganmi?

- Ha, hatto dalalarning qaysidir joyiga bir tup daraxt ekanlarning nomi o'sha daraxtga qo'shib aytiladi, - dedilar bobom. - Masalan, «Qodirning tuti», «Rixsiboyning qayrag'ochi», «Dovudning bodomi». Bu daraxtlar asosan lalmi yerlarga, suv bormaydigan joylarga ekilgan. Ilgarilari lalmi yerlarga g'alla, no'xot kabi ekinlar qo'shda yer haydab yoki ketmon bilan yerni chopib ekilgan. Bu ishga ko'plab qishloq odamlari jalb qilingan. Hosilni yig'ib olish ham qo'lda bajarilgan. Kunning jazirama issig'ida bu daraxtlar soyasi kishilarning joniga oro kirdi.



- Nega aynan tut, qayrag'och, bodom kabi daraxtlar ekilgan? - so'rayman yana bobomdan.

- Ular suvsizlikka chidamli, uzoq yashaydigan daraxtlar, ildizlari juda chuqurga ketadi. Qishdagi qorning, bahordagi yomg'irlarning suvi bilan ham ko'karib turaveradi, - dedilar bobom.

- Bu men ekkan gilos, men ekkan shaftoli, - deydi ukam Fayoziddin.

Hozir tomorqamizga ekilgan yuz tupga yaqin anorlarning parvarishini ukam ikkalamiz qilyapmiz.

O'tgan yili bu anorlar hosilga kirganini ko'rib, qanchalar quvonganimizni ko'rsangiz edi... Chunki bobomning «Yaxshidan bog' qoladi», degan gaplari doimo yodimda turadi.

- Tuproq yer yuzidagi barcha o'simliklarning hayot manbai. Hatto inson ham tuproqdan yaratilgan, - dedi ustozimiz bir kuni qo'shimcha mashg'ulot paytida.

- Ustoz, inson tuproqdan emas, toshdan yaratilganda, hayot qiyinchiliklarini yengishi osonroq bo'larmidi? - dedi Asqar ismli sinfdoshimiz.

- Aytishlaricha, agar inson toshdan yaratilganida, u toshyurak, qahri qattiq bo'lib qolar ekan. Mehri tuproqdek mayin bo'lsin, deb u tuproqdan yaratilgan bo'lsa, ajab emas?! Shuning uchun ham tuproqni oltinga qiyoslaymiz.

Eshitishimcha, xorijda badavlat yashovchi O'zbekistondan ketgan bir inson o'limi oldidan yurtimizga kelib, bir siqim tuproqni ko'ziga surtib olib ketgan ekan. Demak, inson umrining oxirigacha ona tuproqqa mehr qo'yib yashaydi.

Hamqishloqlarimizdan farovonlik nima, deb so'rasan-giz, hech ikkilanmasdan farovonlik - m o' l - ko'l hosil degani. Dasturxon to'la noz-u ne'matning bo'lishi, deyshadi. Bu haq gap. Shu tufayli bo'lsa kerak, ularning yerga mehri bo'lakcha. Ba'zan bir siqim tuproqni qo'limga olib, shunday degim keladi:

Aziz tuproq, sen qishlog'imning obodligi, xalqimning farovonligi uchun xizmat qilasan. Senga bo'lgan mehrim yurtga bo'lgan muhabbatimni kuchaytiradi, shunday yurtda yashayotganimdan faxrlanam. Qo'limga qalam olganim ham sen tufayli. Barchasi uchun sendan behad minnatdorman.

Sadoqat SOLIDDINOVA



YURT MADHI

Vatanimning ta'rifin, So'zlab beray sizlarga. Yurtning erkatoylari, Quvnoq o'g'il-qizlarga.

O'lkam ajib chamanzor, Go'zal maskanlari bor. Hizir nazar solgan yurt, Insonlari beg'ubor.

Qishloqlari xo'p obod, Shaharlari betimsol. Suvi shirin, shifobaxsh, Mevalari misli bol.

Ona yurtim bag'rida, Kamol topib quvnayman. Ta'rifiga she'r bitib, Kuyga solib kuylayman.

Umid YUNUSOV, poytaxtdagi 111-umumta'lim maktabining 6-«V» sinf o'quvchisi

BIR SIQIM TUPROQ

# «QUVMOQ TANAFFUS»



## MENDAN RANJIMANG


Katta tanaffusimizning maroqli o'lishiga ulkan hissa qo'shib kelayotgan ushbu sahifada odatda quvnoq xandalar, ichakuzdi hangomalar, qiziqarli voqea va hodisalar chop etiladi. Men qalamga olayotgan voqea esa kayfiyatimizni biroz tushirib qo'ysa, mendan ranjimang. Vaqinda sinfimizda sodir bo'lgan bir ko'ngilsiz voqeani ayrim tengdoshlarimga saboq bo'lsa, ajabmas, degan niyalda yozib yuboryapman.

Vaqinda shahrimizda iqtidorli bolalar orasida maktablararo tanlov bo'lib o'ldi. Men ham uning she'rxontlik bahsida ishtirok eldim. Tanlov boshlanishi arafasida meni juda hayajon bosdi. Chunki ishtirokchilar orasida eng kichigi edim-da. She'r o'qish navbatini ham birinchi menga berishdi. «Men va mening huquqlarim», «O'zbekiston» kabi ijodimdan namunalar o'qidim.

Tanlov natijalarini inliqlik bilan kuldum. Nihoyat, g'oliblar e'lon qilindi: men 1-o'rinni olibman. Yutug'imdan quvongan ustozim ola-onamga rahmatnoma yozib berdilar. Men uni ehtiyotlab, kundatigim orasiga solib qo'ydim. Kechki ovqatdan keyin dadam bilan oyimga rahmatnomani ko'rsataman, deb kundatigimni ochib qaragam, ne ko'z bilan ko'rayki, uni maydalab yirtib tashlashibdi. Bu ishni qilgan sinfdoshimga buvijonim ko'p takrorlaydigan, inson hasad qilib emas, havas bilan yashashi kerak, degan gaplarini aytmoqchi edim.

Maftuna BOTIROVA,  
yosh muxbirimiz

## SHE'RIY TOPISHMOQLAR




Shamollardan uzar soniya,  
Vaqit sig'ingan mitti bir makon.  
O'zi kichik uycha bo'lsa-da,  
Yashiringan unda ko'p imkon.  
Yumushlarga ulgurish uchun,  
Qani tezroq yuguring, choping.  
Murakkabmas topishmog'imiz,  
Shu uychaning nomini toping!

## SEHRGAR KUZ


Yurtimga mehmon  
Bo'ldi oltin kuz.  
Dala-yu bog'lar,  
Oldi sariq tus.

Qushlar chug'urlab,  
Shoshib qolishdi.  
Issiq o'lkaga,  
Yo'lni solishdi.

Oltinrang libos,  
Kiydi kuz fasli.  
Sehrgar ekan,  
Kuz fasli asli.



Oq yo'llardan qora iz o'ldi,  
Novcha bo'yli qora qiz o'ldi.



Laylak kabi uchib tushdi,  
Ushlasam, qo'lim uvushdi.  
Kaftimda u tin oldi,  
So'ngra yo'qolib qoldi.

Shahnoza G'ANIYEVA,  
poytaxtdagi 116-maktabning  
9-sinf o'quvchisi

## XANDALAR

O'qituvchi jahlini chiqargan ikki o'quvchiga jazo lariqasida o'z ismlarini ellik marolaba yozishlarini buyurdi. O'quvchilardan biri bu qarorga qarshi chiqdi:

- Ustoz, axir bu adolatsizlik ku...
- Nega endi?
- Chunki uning ismi Ali, meniki esa Saidmahmudxo'ja...



Siroj maktabdan kelibq onasining bo'yniga osildi

- va:
- Vaxshiyam biz oilada to'rt farxand ekanmiz, dedi.
  - Bu nima deganing, o'g'lim?
  - Bugun o'qituvchimiz aytdi, dunyodagi har beshinchi bola ziloylik bo'lar ekan!

T.I.U qoshidagi akademik litsey o'quvchisi  
Aziza ABDUNABIYEVA tayyorladi

## QIZIQARLI MASALALAR



1. To'g'ri to'rtbur-chakning perimetri 66 ga teng. Uning katta tomonidan kichik tomonining ayirmasi 5 ga teng.  
Savol: shu to'g'ri to'rtbur-chakning yuzini toping.

2. Simyog'ochga bir to'da qaldirg'ochlar kelib qo'nishdi. Biroz vaqt o'tgach, bu to'daga ularning yarmicha, yana bir muddatdan so'ng choragiga teng qaldirg'ochlar kelib qo'shildi. Endi ularning soni ikkita kam o'tizta bo'ldi.  
Savol: simyog'ochda dastlab qancha qaldirg'och bo'lgan?

Dilnoza USMONOVA,  
O'ZMU qoshidagi Sobir Rahimov  
akademik litseyi o'quvchisi



## Haqiqiy askar maktabda a'lochi bo'lishi kerak



Til – dilning tarjimoni, inson kamolotining belgisi hisoblanadi. Kuni kecha maktabimizda bo'lib o'tgan tadbir ham aynan ona tilimizga bag'ishlandi. Tadbirga taniqli adibimiz Tohir Malik, Jumaniyoz Jabborov, shu bilan birga, tumandagi 38 ta umumta'lim maktablarining ona tili va adabiyot o'qituvchilari tashrif buyurishdi. Mehmonlar boy va go'zal tilimiz haqida o'quvchilarga bir qancha ma'lumot berganlaridan so'ng, Jumaniyoz Jabborov maktab kutubxonasiga «Yulduzlarda xayolim» nomli kitoblarini taqdim etdilar. Tadbir tashkilotchilari bo'lmish ustozlarimiz Gulchehra Mirboboyeva, Maktuba Zokirova hamda maktabimiz rahbari Alijon Musametov bilan birgalikda mehmonlar bilan suratga ham tushib oldik.

Sarvinoz YOQUBJONOVA,  
poytaxtimizdagi 132-umumta'lim  
maktabining



Shu tobda Dilshodjonning quvonchi ichiga sig'maydi. Pochtachi unga harbiyda xizmat qilayotgan tog'asi Shukrullodan xat keltirdi. Unda tog'asining harbiy kiyimdagi surati ham bor ekan.

Dilshodjon hech kimni suratni tuzukroq ko'rishga ham qo'ymadi, darhol onasining qo'lidan rasmini yulib oldi. Va unga uzoq tikildi. Axir tog'asi – uning tog'asi-da. O'ziyam tog'asini rosa sog'indi. Qani edi hozir eshikdan kirib kelsa-yu, birinchi bo'lib Dilshodjon uni mahkam quchoqlab olsa. Tog'asi askar shapkasini jyanining boshiga qo'ndirardi. Agar tog'asi komandirlariga: «Dilshodjon mening jyanim, unga ham o'zigi mos askar kiyim beringlar», desa, albatta berib yuborishlari mumkin. Buni onajonimga aytaman. Tog'amga xat yozayotganlarida eslatib qo'yadilar. Askar kiyimlarini kiyib ko'chaga chiqqanimda, qo'shni bolalar shunday havas qilishsinki!.. Dilshodjon o'z orzularidan entikib: «Men askay bo'laman!» – dedi qat'iyat bilan.

U dadasining ishdan qaytishini sabrsizlik bilan kuta boshladi. Aksiga olib, har kuni qorong'u tushmasdan mashina signalini bosadigan dadajonisi negadir bugun hayallab qoldi.

– Adajonimga askay bo'lishimni aytmasdan uxlamayman. Mashina signalini eshitishi bilan Dilshodjon darvoza tomon yugurdi. Dadasi mashinadan tushar-tushmas suyunchilay boshladi:

– Dadajon, mana, tog'amdan rasm keldi.  
– Qani, qani, oh-oh, zo'r-ku! – dadasi suratga mehr bilan tikildi.

## KICHKINA ASKAR



(Hikoya)

– Menam askay bo'laman.  
– Albatta, o'g'lim, katta bo'lsang, armiyaga borasan, Vatanni qo'riqlaysan.

Dasturxon ustida ham Dilshodjon savol beraverib, dadasini holi-joniga qo'ymadi.

– Askay bo'lish qiyinmi?

– Nima desam ekan- a, – dadasi piyoladagi choyni xo'plab o'g'liga tikildi, – askar har tomonlama zo'r bo'lishi kerak.

– Kayateniyam bilishi kerak-a?

– Albatta, karatani, boksni, sakrashni, yugurishni, umuman, sportning hamma turini bilishi kerak.

– Shuni bilsa bo'ldimi?

– Yo'q, haqiqiy askar maktabda a'lochi bo'lishi kerak.

Hamma fanlarni o'zlashtirishi shart. Til bilishi, yana kompyuterni yaxshi bilishi kerak. Xullas, askar zo'r bo'lishi kerak. Chunki u Vatan himoyachisi, mamlakatimiz tinchligini qo'riqlaydi. Jasur va mard askarlar borligi uchun

armiyamiz kuchli, qudratli...

– Tushundingizmi, ota o'g'il? Qani, kichkina askar bilan bir achomlashaylik-chi...

Dilshodjon chaqqonlik bilan o'rnidan sakrab turib, «askarchasiga» dadasining quchog'iga o'zini otdi.

Adiba AYIZOVA,  
Qashqadaryo viloyati, Kasbi tumani, Maymanoq  
qishlog'i

## MALIKA NEGA UYALDI?



(Hikoya)

Ilyira DAVURAYEVA  
chizgan rasm

Malika bilan Guloyimning ota-onasi ish yuzasidan bir necha kunga Toshkentga ketgani bois, opa-singillar qishloqdagi sevimli buvisinikida yashab turadigan bo'lishdi. Malika to'qqiz, Guloyim esa yetti yoshda. Yaqinda birinchi sinfga qadam qo'ygan Guloyim oilaning kenjasi. Ammo erka emas, juda chaqqon va aqlli qiz.

Bir kun o'tgandan so'ng, kechqurun buvisi nabiraloriga:

– Qizlarim, ertaga sizlarga shirin somsa pishirib bermoqchi edim. Barvaqtroq turib menga yordamlashib yuboringlar, xo'pmi, – dedi muloyimlik bilan. Malikaga bu gap yoqmadi va arang:

– Xo'p, buvijon, – dedi.

Erta tongda Malika o'rnidan turib, buvisining oshxonada yurganini ko'rdi. Lekin erinchoqligi tutib, yana qaytib o'rniga yotib oldi. Buvisi ham uni uyg'otmadi. Chunki kichkina Guloyim unga yordamga kelgandi.

Biroz vaqtdan so'ng, Guloyim Malikani uyg'otib:

– Yuring, opajon, choy ichamiz, – dedi. Malika qorni och bo'lgani uchun tez yuz-qo'lini yuvib, dasturxon oldiga o'tirdi.

Ertatongda turib kichkina bo'lishiga qaramay yordam berganini aytib, maqtardi. Malika o'z qilgan ishidan uyali ketdi.

– Eh, boya erinchoqligim tutib, qaytadan yotib olmaganimda, buvim meni ham maqtagan bo'lardilar, – deya pushaymon bo'ldi. Ikkinchi bor somsaga qo'l uzatishga uyaldi. Uning bu holatini buvisi sezgandek: – Ol, qizim, olaver! – dedi mehribonlik bilan.

Fariza AVEZOVA,  
Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahridagi  
37-ixtisoslashtirilgan maktabning 9 -«A» sinf o'quvchisi

Bodom o'sar yovvoyi holda,  
Tog' bag'rida, qiyaliklarda.  
Hech bo'lmasa dengiz sathidan,  
Minglab metr balandliklarda.

Erta gullar, so'ng bargin yozar,  
Naq chillada pishar mevasi.  
Tuxumsimon cho'ziq danakli,  
Chaqsang chuchuk, achchiq mazasi.


Chuchugini barcha iste'mol  
Qilar mehmon, ziyofatlarda.  
Ulfat gapi, yozilsa stol,  
Qo'yiladi tansiq qatorida.

Tibbiyotda ham foydasi ko'p,  
Chuchuk bodom mag'zining.  
Moyi ichni yurgizadi xo'p,  
Qator naf bor urug' joyidan.

Yeyish lozim uyqusizlikda,  
Bosh og'rig'i, quvvatsizlikda.  
Achchiq bodom nafi ham kammas,  
Turli-tuman darmonsizlikda.

Achchiq bodom mag'zi shifo  
Astma, yo'tal, ko'krak og'riqqa.  
Isbot etgan naqd Ibn Sino,  
Davo hatto buyrak, qovuqqa.

## XANDON PISTA



Xandon pista Vatani bilsang,  
Biz turgan yer O'rta Osiyo.  
Tabiatda pista turlicha,  
Tuproqlarda o'sadi hatto.


Qunli, toshli yermi, suvi kam,  
Chag'ir toshli tog'ning yonbag'ri.  
Soz tuproqli adirlarda ham,  
Xandon pista bo'lar hosili.

Xandon otib kulganlar kabi,  
Pistaning ochiqdir negadir labi.  
O'zi sof havoda o'sadi pastak,  
Hosili pishadi yorilib danak.

Danakda bor hukmat, mag'zi bo'ladi,  
Mag'zini yeganni nafi to'ladi.  
Davoni quvvatdir tanga kirgan on,  
Tomirda jo'shadi yangi toza qon.

Tarkibida moyi oltimish qismcha,  
Oqsil ham yetarli yigirma foiz.  
Tabobatda moziy ilmicha,  
Sog'liqqa u kerakli, joiz.

Abdujabbor OBIDOV



# FUTBOLNI YAXSHI KO'RAMAN

Odatim shunday: ishdan chiqaman-u,

«Paxtakor» futbol maydoniga, o'g'lim Sardorning yoniga oshiqaman.

Chunki uning futbol saboqlari kunning ikkinchi yarmida, kech soat 16 da boshlanadi.

Murabbiyning darslari esa kech soat 18 da tugaydi. Ana-mana qilib, uyga yetib kelguncha, soat millari kechki soat 19 dan oshib ketadi. Kechki ovqat, darslari, yana futbol mashg'ulotlari degandek, bolamning bo'sh vaqti yo'q hisobi. Ahyon-ahyonda qishloqdagi buvilari: «Qarindoshlarini bir yilda bir kelib ko'rmaydi-ya», deyishadi. Aslida bir kun mashg'ulot qoldirsa bormi, murabbiyi: «Sport katta mehnatdir, bir foizi iqtidor, to'qson to'qqiz foizi harakatdir», deya ta'kidlaydi.

Keling, mening kichik sportsevar do'stlarim! Bugun sport sahifamizda bo'lajak sport yulduzlari, ularning ota-onalari, tengdoshlari va yosh sportchi bolalarning orzu-umidlari haqida fikrlashsak:

– Bundan besh yil avval o'g'limni «Paxtakor» bolalar klubiga olib kelgandim. Qabul qilishmagan. Keyin maktabida, mahalliy klublarda o'ynab yurdi, ammo undan futbolchi chiqmadi. Men esa o'g'limni katta maydonlarda ko'rishni istardim.

U mashhur futbolchi bo'lishini hali-hanuz orzu qilaman, – dedi bir kuni bizni mashg'ulotga olib kelayotgan mashina haydovchisi.

Yana bir kuni mashhur futbol sharhlovchisi: – Yaqinda Sirdaryo viloyatining bir tumanida iqtidorli futbolchi bolalarni to'plab turnir tashkil qilishibdi. Meni u yerga tajribali murabbiy sifatida bolalarni sinovdan o'tkazib berish uchun taklif qilishgandi. Rosti, bu taklif meni haqiqiy iqtidorlar makoniga boshlaganidan xursand bo'ldim. Maydondagi har bir bolada yetarlicha iqtidor bor ekan, lekin bularga o'z vaqtida e'tibor berilmay, bo'sh vaqtini murabbiysiz, musobaqalarsiz o'tkazishayotganidan xafa bo'lib ketdim. Shu o'rinda viloyat sport qo'mitasi

mutasaddilari va bolalar sporti jamg'armasi nima ishlar bilan band ekanlar-a, deya o'ylab ketdim. Yoki bolalarni tajribali seleksionerlar nima uchun markaziy futbol maktablariga yetaklab kelish ishlariga jiddiy qaramasliklarini haligacha tushunmayman.

**Abdulboqi, 12 yosh:** – Men o'rtog'im Sardorga havas qilaman. U olti yoshidan futbolga qatnaydi.

**24-Oktabr – Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi tashkil topgan kun.**

tarkib darvozaboni. Har yakshanba o'rtog'imning jamoasi shahar chempionatining rasmiy o'yinlarida ishtirok etadi. Futbolga qiziqqanimdan ularga muxlislik qilish uchun erta tongdanoq Sardorning uyiga kelaman. Birgalashib stadiongga boramiz. Yana havasimni keltirib aynan uning jamoasi birinchilikni qo'lga kiritadi. Maydonda tengdoshlarim g'oliblikdan quvonganlarida, men ham o'zimni ular safida ko'rgim keladi. Ammo ota-onam futbolchi bo'lishimni sira xohlashmaydi. Do'stimning jamoasi shahar chempionatining ikkinchi pog'onasin egallab turibdi.

**Jasur, shu maktabning a'zosi:** – Men futbolni yaxshi ko'raman. Ikkinchi tarkibda o'ynayman. Asosiy tarkibdagi tengdoshlarimga juda havas qilaman. Har-yili chempionatda qatnashayotgan

Hozir «Paxtakor» futbol akademiyasining o'quvchisi.

Shuningdek, asosiy




o'rtoqlarim safiga qo'shilishga harakat qilyapman. Lekin mahoratim yetishmasligini ham bilaman. Maydon faqat kuchlilarni tanlashini siri ham shunda ekan.

– **Men Shohruhman.** Maydonning himoya chizig'ida o'ynayman. Oq-sariq bo'lganim uchun murabbiy meni «Zolotoy» deb chaqiradi. Shu kungacha raqiblar darvozasini yetmişdan ortiq gollarim bilan zabt etganman. Niyatim mashhur bo'lish. Birinchi shartnomamdan topgan pulimga albatta mahallamga ko'm-ko'k stadion qurmoqchiman.

Bolalar, sizning orangizda ham sportga astoydil qiziqib, chiroyli umidlar ila yashayotgan tengdoshlaringiz bo'lsa, bizga yozib yuboring. Ularning bo'sh vaqti qanday o'tyapti, yutuqlari haqida nima deysiz? Do'stingiz chindan ham iqtidorli bo'lsa, sport maydonlariga boshlab keling. Axir yurtimizdagi barcha sport koshonalari ularni kutmoqda.

## OLIMPIYA O'YINLARIGA BORMOQCHI

Zarifa Sobirova endigina yetti yoshga to'ldi. U yaqinda o'tkazilgan «Farzandlari sog'lom yurt qudratli bo'lur» ko'rik-tanlovida qizlar o'rtasida badiiy gimnastika turi bo'yicha birinchilikni qo'lga kiritdi. Zarifaga viloyat madaniyat va sport ishlari boshqarmasining Diplom va qimmatbaho sovg'alari topshirildi.



Uch yoshligidan sportga mehr qo'ygan Zarifa hozir Jizzax tumanidagi «Dilnoza» nomli bog'cha-maktab tarbiyalanuvchisi. Uning o'rtoqlari Shuhrat va Maftuna ham badiiy gimnastika bilan muntazam shug'ullanib, shahar musobaqasining g'oliblari bo'lishdi. Ularning ustozlari oliy toifali pedagog Ozoda opa Azizova uzoq yillardan buyon badiiy gimnastika to'garagini boshqarib kelmoqda. Shu yillar mobaynida Ozoda opa 30 ga yaqin shogirdlarni tarbiyaladi.

– Iqtidorga albatta e'tibor kerak. Bolajonlarimizning mehribon murabbiyi Ozoda Azizova chindan ham o'z ishiga jiddiy yondashadi. Bugun maskanimizda gimnastikachi qizaloqlarning soni ko'payib borayotganidan mamnunmiz, – deydi Xalq ta'limi a'lochisi, oliy toifali pedagog mudira Bahriniso Suvonqulova.

Agar yo'lingiz tushsa, bo'lajak Olimpiya o'yinlarida sovrindor bo'lishni orzu qilayotgan jizzaxlik jajji gimnastikachilar bilan uchrashmoqchi bo'lsangiz, bog'chamaktabimizga bir keling.

**Abdulla SAIDOV, Jizzax viloyati**

## KATTA CEMPION BO'LMOQCHI


Suratida: Elyorjon Jo'raboyev mashq zalida.



Tengdoshingiz Elyor Jo'raboyev Chirchiq shahridagi 10-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi. Uning bo'sh vaqti sport zalida o'tadi. Karate bilan muntazam shug'ullanayotgan kichik chempion ayni kunda sariq belbog' sohibi. U Toshkent viloyatida bo'lib o'tgan bir necha musobaqalarda birinchilikni qo'ldan bermay kelmoqda. Yaqinda Elyorjonning Samarqandga, Jizzaxga qilgan safari uni yana Diplomlar bilan siyladi. Mukofotlardan quvongan kichik chempion endi katta chempionlikni orzu qilmoqda.

# «OLTIN FASL» CHAYNVORDI

## «K» harfi bo'yicha:




1. Yilning kech kuz davri.
2. Oq uzumning donalari yirik, boshi katta bo'ladigan, mayizbop, Samarqand viloyatidagi shaharga nomdosh xili.
3. Daraxtning tanasi qattiq, hosili sersuv meva.
4. Mevasi maydaroq, urug'siz uzum.
5. Ildizmevali shifobaxsh sabzavot.
6. Dukkakli donli ekin.
7. Kuzgi yer haydash.
8. Qishga saqlanadigan xushbo'y olma navi.
9. Nokning sershira, suvli, yirik navi.
10. Qish faslining erta kelishidan darak beruvchi, achchiq-sovuqli, bo'ralagan shamol.

## «U» harfi bo'yicha:




11. Mamlakat birinchiligi, kuz faslida yakunlanadigan sport o'yinlaridan biri.
12. Kanop, zig'irpoya kabi tola beradigan texnika o'simliklari majmui.
13. Kuzpishar xushbo'y ho'l meva.
14. Kuzda pishib yetiladigan, mayda qora yoki qizil mevali, yovvoyi, shifobaxsh bir yillik o'simlik.
15. Kuzgi teng kunlikda qadimdan o'tkazilib kelingan milliy, sharqona fasl va hosil bayrami.
16. Yengil yoqimli shabada.
17. Achchiq mevasi ziravor sifatida ishlatiladigan tropik o'simlik.
18. Hosili kuz o'rtalarida pishib yetiladigan, vitaminlarga boy meva.
19. Kuz fasli o'rtalarida uyquga ketadigan yirtqich.
20. Qovunning kechpishar, qishga saqlanadigan, po'sti qalin, och yashil tusdagi navi.
21. Suv yo'li.
22. G'ujumlari yirik, sersuv, qishga saqlanadigan kechpishar uzum navi.

## «Z» harfi bo'yicha:



23. Kuzda ko'pchilik safarbar etiladigan, hosilni yig'ib olish mavsumi.
24. O'quv yili kuz faslida boshlanadigan bilim maskani.
25. Mevazor va gulzor maskan.
26. Hosil uyumi.
27. Sabzining yo'g'on, uchi to'mtoq turi.
28. Hosili qishga tuzlanadigan poliz ekini.
29. Uzumning mushk iforini beruvchi kuzpishar navi.



30. Respublikamizda yetishtiriladigan karam va paxtaning nomdosh navi.
31. Hosili pishirilmay iste'mol qilinadigan, Oltiariq tumanida ko'plab yetishtiriladigan kuzpishar sabzavot.
32. Tola va yog' olinadigan, ulkan xirmon uyuladigan texnika ekini.
33. Mezon va Qavs burjlari orasida joylashgan burj.
34. Sermoy, Vatanimizda eng erta gullab, eng kech pishadigan quruq meva.
35. Shamsiya yil hisobidagi kuz oylaridan biri.
36. Kuzpishar dukkakli don.

2. Kuz faslida mamlakatimizdan uchib ketadigan, tumshug'i va oyoqlari uzun serxosiyat parranda – 10, 15, 14, 10, 15, 5.
3. Hosil yetishtiriladigan maskan. – 16, 15, 10, 15.
4. Tok navdasining ko'p yillik yo'g'on qismi – 12, 15, 2, 7.
5. O'simlikning kuzda xazonga aylangan a'zosi – 3, 15, 8, 7.
6. Xazonga aylangan bargi chorva moliga yaxshi ozuqa bo'luvchi meva – 11, 6, 11.
7. Ba'zan kech kuzdan boshlanadigan yog'in – 9, 4, 8.

## MUAMMONOMA

Avvalo quyida ta'riflanib, raqamlarda ifodalangan kalit so'zlarni toping.

1. Kuzgi qovun sayllarida o'tkaziladigan bahs – 13, 1, 8, 1, 2, 15, 5.

Endi shakl aylanalaridagi raqamlarni kalit so'zi javoblaridagi harflar bilan almashtirib, muammonomani hal eting. Shunda ulardan hikmatli so'zlarni bilib olishga muvaffaq bo'lasiz.

Foziljon ORIPOV tuzdi

## «O'zbek tili» topqirli mashqlarining javoblari:

### AYLANMA KROSSVORD

Shaklda belgilangan xonalardan raqamlar atrofiga soat mili yo'nalishida: 1.Sifat. 2.Nuqta. 3.Qomus. 4.Undov. 5.Olmosh. 6.Maqlol. 7.So'roq. 8.Darak. 9.Undosh. 10.Tushum. 11. Atama. 12. Tinish. 13.Ravish. 14. Lahja. 15. Aloqa. 16.Sodda. 17. Maqom. 18. Kesim.

### CHAYNVORD

Aylana yo'nalishi xonalari bo'yicha: 1.Fonetika. 2.Aniqllovchi. 3.Izoh. 4.Husnixat. 5. Tilshunoslik. 6. Qoshg'ariy. 7. Yo'sin. 8. Nutq. 9. Qavs. 10.Sintaksis. 11.Sanoq. 12.Qavs. 13.Son. 14.Nisbat. 15.To'ldiruvchi. 16.Insho. 17.Omonim. 18. Musahhih. 19.Hol. 20.Lutf. 20.Fe'l.

### HIKMATLAR MUAMMONOMASI


Kalit so'zlar: 1.Ega. 2.Ibora. 3.She'r. 4.Lotin. 5.Va. 6.Yil. 7.Grammatika. 8.U. 9.So'z. 10.Ham.

Shakl markazida: Til – millat ko'zgusi. Shakl atrofida: Tilga ehtiyotsiz, elga e'tiborsiz. Alisher Navoiy.

Foziljon ORIPOV

## YAXSHILIKKA

## KIZMAT QILSIN!



Aziz bolajonlar, biz yong'in xavfsizligi xodimlari barchangizni yana bir bor ogohlikka chiqaramiz!

Zero, tilsiz yov bilan kurashish faqatgina bizning vazifamiz emas, har bir fuqaroning burchidir. «O'z uyingni o'zing asra!» – degan shior har bir fuqaro, har bir

oila, korxon, muassasa uchun taalluqlidir. Aholining quyidagi yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilishi maqsadga muvofiq bo'lar edi:

**Ochiq alangadan foydalanilayotganda, ehtiyotkorlik choralarini ko'rish.**

**Elektr va gaz asboblarni dolmo soz holda tutish, qo'lbola tayyorlangan elektr va gaz asboblardan foyda-**

lanmaslik lozim.

Yuqoridagi qoidalarga rioya qilinsa, biz uy-joyimizni, qolaversa, o'zimiz va yaqinlarimiz hayotini asrab qolgan bo'lamiz.

Shundagina uyimizda yonayotgan olov faqat yaxshilikka xizmat qiladi.

YOXB 12-XYOXO xodimi,  
kapitan ZAKBAROV



### Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan Xalqaro xayriya jam'armasi.

BOSH MUHARRIR:  
To'lqin HAYITOV

Dizaynerlar:  
Fazliddin SHOYODGOROV,  
Olovuddin ORIPOV  
Navbatchilar:  
Ma'mura MADRAHIMOVA,  
Yusuf ABDULLAYEV

Gazeta  
O'zbekiston  
Matbuot va  
axborot  
agentligida  
0208-raqam  
bilan 2007-yil  
2-fevralda  
ro'yxatdan  
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:  
G'ayrat SHOUMAROV,  
Svetlana INOMOVA,  
Qahramon QURANBOYEV,  
Odina JAMOLDINOVA,  
Jabbor RAZZOQOV,  
Murtazo SULTONOV,  
Feruza JALILOVA  
(Bosh muharrir o'rinbosari),  
Feruza ADILOVA  
(Mas'ul kotib),  
Dilmurod RAHMATILLAYEV,  
Dilshoda DADAJONOVA

Manzillimiz:  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Indeks: 700129.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail: tong1924@mail.ru  
Tel: 244-27-25, 244-63-08  
Tel./faks:  
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»  
nashriyat-matbaa ijodiy  
uyida chop etildi.  
Haftaning  
dushanba kuni chiqadi.  
Shakli A-3,  
2 bosma taboq.  
ISSN 2010-6092  
Adadi - 26471  
Buyurtma N: J 8303